

Kompyuterda loyihalash usullari.

AutoCAD dasturining yaratilganligiga 30 yilga yaqinroq, grafik dasturlari orasida hanuzgacha mashhurligicha qolmoqda. Chunki AutoCAD dasturi mukammal va ommabop, hamda loyihalash ishlari avtomatlashtirilgan dastur bo`lib, u har qanday turdag'i sxema va chizmalarini yuqori aniqlikda, sifatli bajaradi. Shuningdek, bu dasturdan foydalanuvchilarning ijodiy imkoniyatlarini to`la amalgalashga yordam beradi. Shu sababli, millionlab loyihachi mutaxassislar, olimlar, injener-texniklar va talabalar, ya`ni dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlari 18 tilda loyihalash ishlarini bajarishda AutoCAD tizimidan foydalanishlari odatiy holga aylanib qoldi.

AutoCAD dasturi 1982 yilda yaratilganligiga va uning millionlab foydalanuvchilari bo`lishiga qaramay, Respublikada maktab o`quvchilari va talabalar «Informatika» va «Chizmachilik» fanlarini o`qish jarayonida grafik dasturlardan «Paint», «Microsoft Office Word» dasturining «Risovanie» va «Beysik» dasturining grafik tahrirlaridan foydalanishni o`rganadilar. Lekin, bunday grafik dasturlarda grafik yasashlarni avtomatlashtirish imkoniyatlari past bo`lib deyarli yo`qdir. Ushbu o`quv qo`llanmada loyihalash ishlarini avtomatlashtirishning grafik dasturi bo`lgan, AutoCAD tizimi imkoniyatlari bilan tanishib, xatto maktabda ham, chizmachilik, naqqoshlik kabi mashg`ulotlarda grafik buyruqlar yordamida chizma primitivlarining elementlarini, ya`ni tarkibiy qismlarining chizmalarini 1-2-3 va 4-mashg`ulotlarda bajarishga o`rganib chiqib, olingan bilim, ko`nikma va amaliy malaka asosida 1-grafik ish-«Tutashuv» vazifasini bajarishlari mumkin.

AutoCAD tizimida grafik axborotlarning elementlari, ularga mos bo`lgan tayyor buyruqlar paketidan foydalanib, berilgan o`lchamlarini komp`yuterga kiritib, bevosita muloqatlar ketma-ketligi asosida tasvirlar bajariladi.

Muhandislik komp`yuter grafikasi mashg`ulotlarining mavzularini tanlashda o`quvchilarni chizma primitivlarini komp`yuterda bajarishga o`rgatishdan boshlash, maqsadga muvofiq deb belgilandi. Chunki, chizma primitivlarini komp`yuterda bajarishni yaxshi o`zlashtirib olgan o`quvchi yoki talabalar, har qanday murakkablikdagi tasvirlarni ham komp`yuterda bajara oldilar.


Ma`lumki, AutoCAD tizimiga oid ko`plab zamonaviy adabiyotlar yaratilgan. Birinchidan, ular juda katta hajmda chop etilgan bo`lib, kamida 400-450 sahifadan iborat va

bizga etib kelganlari rus tilida yozilgan. Bunday darsliklardan o`quvchi va talabalarning foydalanishlari juda ham noqulaydir. AutoCAD dasturining darsligi ham rus yoki ingliz tilida yozilgandir. Shuning uchun, biz bu risolani yaratishga va barcha o`quv maskanlarida muhandislik grafikasi fanini o`kitishni tubdan yaxshilashga o`z hissamizni qo`shishga kirishdik.

Ma`lumki, har qanday grafik axborotlar nuqta, kesma, to`g`ri chiziq, ko`pburchak, aylana, yoy va turli usullarda yasaladigan egri chiziqlar to`plamidan iborat bo`ladi. Bu primitivlarni bo`yash, unga tur berish, yo`g`onlashtirish, aylana chizish asosida tutashmalar yasash, ortiqcha chiziqlarni o`chirish, tasvirni surish, ko`paytirish yoki aks-simmetrik tasvirini yasash, matn yozish, o`lcham qo`yish hamda bajarilgan chizmani, yozilgan matnni taxrir qilish kabi buyruqlaridan amaliy foydalanishga o`rgatish, shu jumladan, komp`yuterda chizma bajarish malakasini oshirish maqsad qilib qo`yilgan. Komp`yuter grafikasi fani quyidagi texnik va dasturiy vositalar yordamida o`qitiladi:

1) Texnik vositalar (1-rasm):

- 1 - Tashqi xotira qurilmasi - processor;
- 2- Displey - monitor;
- 3 - Kiritish qurilmalari: Klaviatura - tugmalar paneli, sichqon, skaner va boshqalar;
- 4 - Qog`ozga chiqarish qurilmasi - printer, plotter va boshqalar
- 5- Ovoz chiqarish qurilmalari – kolonkalar



1-rasm

2) Dastur vositalari:

Dasturlar: sistemali-operacion va amaliy dasturlarga bo`linadi. Operacion dasturlar-foydalanuvchini komp`yuter bilan muloqot qilishida vositachi bo`lib xizmat qiladi. Ular, yordamida tezkor xotiradan foydalanish, disketlardagi axborotlarni o`qish, axborotlarni disketga yozish, amaliy dasturlarni ishga tushirish kabi amallar bajariladi.

Amaliy dasturlar - u yoki bu grafik axborotlar uchun tuziladi va komp`yuterga kiritiladi. Dasturlar Beysik yoki Paskal` tilida tuziladi. Ushbu o`quv qo`llanmada komp`yuter grafikasida loyixalashning avtomatlashtirilgan tizimi AutoCAD programmalaridan foydalanib, grafik axborotlarni komp`yuterda bajarishni o`rgatiladi. Bunda, foydalanish uchun ishlab chiqilgan AutoCAD ning oxirgi versiyalaridan AutoCAD-2006 dasturlaridan foydalaniladi.

AutoCAD 2006 ni yuklash

Ma`lumki, komp`yuter quyidagi ketma-ketlikda elektr tarmog`iga ulanadi, ya`ni yuklanadi: PROCESSOR-MONITOR-PRINTER va boshqalar. Uni o`chirish esa, aksincha bo`ladi: PRINTER-MONITOR-PROCESSOR. Komp`yuter tarmoqqa ulangach, ekranning chap tomonida ustun ko`rinishida unga kiritilgan asosiy programmalar, «Yarliuk»-ramziy belgi ko`rinishida joylashgan bo`ladi. Ular orasidan «AutoCAD 2006» ga kursorni «Sichqon» yordamida olib kelib, uning chap tugmasi ketma-ket ikki marotaba yuklanadi. ekranda qum soat bilan kursorni strelkasi yonma-yon paydo bo`ladi va biroz vaqt o`tgach

ekranda «AutoCAD 2006» darchasi 2-rasmda keltirilgan ko`rinishda paydo bo`ladi. «OK» tugmasi bosiladi. Shunda, «Seminar po novium vozmojnostyam» darchasi paydo bo`ladi.




Autodesk

2 -rasm

Mazkur seminar AutoCAD 2006 dasturidan foydalanishga o`rgatish uchun mo`ljallangan. Darchaning chap pastki qismida joylashgan «OK» tugmasini bosib, keyingi darchaga o`tiladi, (3-rasm).


Navbatdagi darchada o`rganuvchilar uchun ma`lumotlar ro`yhati keltirilgan. Agar, foydalanuvchilarning ularga ehtiyoji bo`lmasa, bu darcha yuqori o`ng tomondagi qizil rangdagi o`chirish – ekrandan yo`qotish tugmasi yuklanadi.



3- rasm

Natijada, ekranda AutoCAD 2006 dasturining aynan, 5-rasmda tasvirlangan kabi ishchi stol yoki foydalanish interfeysi paydo bo`ladi. Aslida, ishchi stolining o`rtada qismi modellar fazosi deb ataluvchi soha qora rangda bo`ladi. Mutaxassislarning fikricha, bunday rangda chizilgan oq rangli chiziqlar va ularga rang berilganda, foydalanuvchini

charchatmay, tasvirdagi turli ranglarni oson va qulay anglab olishni ta`minlaydi. Ammo, ekrandagi tasvirlarni boshqa dasturlaga ko`chirilganda (masalan, Word)ga matn sahifalarining qora rangda bo`lishi maqsadga muvofiq bo`lmaydi. Shuning uchun, ekranni oq ranga o`tkazishga to`g`ri keladi. Bunda, ekranning «Tushuvchi menyular qatori»dagi «Сервис» buyrug`ini yuklash orqali «Настройки» buyrug`ining oynasi ochiladi, (4-rasm). Oynadagi yuqoridan ikkinchi bo`lib joylashgan «екран» darchasi yuklanib, «Цвета»-ranglar tugmasi bosiladi. Shunda, ekranda yangi «Установка цветов»-ranglarni o`rnatish darchasi paydo bo`ladi. Undan «Cvet» buyrug`ining tugmasi yuklanib, taklif etilgan standart ranglardan biri masalan, oq rang tanlanadi. Bu darchadagi «Принять» tugmasi va dastlabki oynadagi «OK» tugmasi yuklanadi. Natijada, darcha va oynalar ekrandan yo`qolib, modellar fazosi oq rangda tasvirlanib qoladi.



4-rasm

Modellar fazosini qora ranga o`tkazish uchun, yuqoridagi amallar takrorlanib, taklif etilgan rang uchun qora rang belgilanadi.

